



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV TA‘LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA  
XALQARO HAMKORLIK  
MASALALARI**

**XALQARO ILMIY-AMALIY  
KONFERENSIYA MATERIALLARI**



**2025-yil 18-oktabr**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK  
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA XALQARO HAMKORLIK  
MASALALARI**

**Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari**

**2025-yil 18-oktabr**

**Toshkent – 2025**

**SADRIDDIN AYNIYNING “SUDXO‘RNING O‘LIMI” QISSASIDAGI  
ANTROPONIMLARINING KOGNITIV-SEMANTIK TAHLILI  
COGNITIVE-SEMANTIC ANALYSIS OF ANTHROPONYMS IN  
SADRIDDIN AYNI’S NOVELLA “DEATH OF A USURER”**

10.52773/tsuull.conf.2025.18.10/HCWG6697

**Davronova Zarnigor Jabbor qizi**  
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU  
2-bosqich tayanch-doktoranti  
[dzarnigor93@gmail.com](mailto:dzarnigor93@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Sadridin Ayniyning qalamiga mansub “Sudxo‘rning o‘limi” qissasidagi antroponimlarning tahlili amalga oshiriladi. Lingvokognitiv yondashuv asosida ismlarning ichki semantik tuzilmasi, konnotativ yuklamalari, mental tasavvurlar va u orqali jamiyat tafakkuridagi stereotiplar yoritiladi. Asardagi obraz bilan ism o‘rtasidagi semantik nomuvofiqlik, ya’ni kognitiv dissonans orqali muallifning ideologik niyati, ijtimoiy tanqidiy pozitsiyasi ochib beriladi.

**Kalit so‘zlar:** antroponim, kognitiv tahlil, semantika, konnotatsiya, dissonans, adabiy obraz, jamiyat tafakkuri, mental makon.

**Annotation.** This article analyzes the anthroponyms in Sadridin Ayni's story "Death of the Usurer." On the basis of the linguocognitive approach, the internal semantic structure of names, connotative loads, mental representations and stereotypes in the thinking of society are highlighted. Through the semantic discrepancy between the image and the name in the work, that is, through cognitive dissonance, the author's ideological intention and social critical position are revealed.

**Keywords:** anthroponym, cognitive analysis, semantics, connotation, dissonance, literary image, social thinking, mental space.

Sadridin Ayniyning “Sudxo‘rning o‘limi” asari o‘zbek adabiyotining satirik-realistik durdonalaridan biri bo‘lib, unda Buxoro amirligi davridagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, kambag‘allik va xudbinlik kabi mavzular yorqin aks etgan. Qissadagi antroponimlar (shaxs nomlari va laqablari) shunchaki nominativ vosita emas, balki personajlar xarakterini, ijtimoiy holatini va ruhiy holatini ochib beruvchi muhim lingvistik-stilistik vosita sifatida ishlatilgan. Lingvokognitiv tahlil nuqtayi nazaridan, bu nomlar o‘quvchining ongida personajlarni milliy madaniy kontekstni yaxshi tasavvur etishga yordam beradi: ular etimologik ildizlari orqali tarixiy-diniy qatlamlarni, semantik ma’nolari orqali ironiya va kontrastlarni, kognitiv jihatdan esa metaforik assotsiatsiyalarni (masalan, hayvonlar yoki kasb bilan bog‘liq obrazlarni) faollashtiradi. Nomlar o‘zbek onomastikasining xususiyatlarini (arab-forscha ildizlar, laqablarning kasbiy yoki xulqiy asoslanganligi) aks ettirib, qahramonlarni tipik ijtimoiy obrazlar sifatida shakllantiradi. Asarda kitobxon har xil obrazlarga duch kelishi mumkin:

sudxo‘rlar, kambag‘al dehqonlar, madrasa mullavachchalari, savdo-sotiq qiluvchi savdogarlar va boshqalar.

Badiiy asar tilidagi antroponimlarini o‘rganish, avvalo, onomastika ilmini rivojlantirish uchun muhim bo‘lsa, yozuvchi uslubini belgilash uchun ham ahamiyatlidir. Shu sababli Sadridin Ayniyning “Sudxo‘rning o‘limi” qissasida yozuvchi tomonidan qo‘llanilgan antroponimlarni o‘rganish Onomastika sohasining rivojiga katta hissa qo‘shadi.

Asarining bosh qahramoni Qori Ishkamba bo‘lib, u o‘z manfaatini hamma narsadan ustun qo‘yadi. Asarni o‘qish mobaynida Qori Ishkambadan nafratlanasiz, yomon ko‘rasiz, hatto qarq‘ashingiz ham mumkin, lekin asar so‘nggida esa unga rahmingiz ham keladi. U faqat qorni uchun yashaydiganlar toifasidan, hammadan shubhalanadi, hech kimga ishonmaydigan odam. Faqat Qori Ishkambadan emas barcha sudxo‘rlardan nafratlanasiz, ular shu darajaga yetganki boylik orttirish uchun oddiy xalqni talaydi, turli xiylalar bilan ularni mol-mulklarini, uy-joylarini tortib oladilar

Asarda keltirilgan antroponimlarning tahlilda ularning etimologiyasi, semantik xususiyatlari, stilistik o‘ziga xosliklari va lingvokognitiv talqinlarida quyidagilarga e‘tibor qaratildi:




Исмаг, Ismat [a.] - покиза, озода, гуноҳсиз, тақводор, порсо. Шакллари: Исмагжон, Исмагхон [Begmatov, 2016: 170].

Asarning bosh qahramonining ismi Ismatullo bo‘lsa ham, lekin asarda qahramon doimo xalq tomonidan berilgan laqab bilan beriladi Ismatullo – ezilgan o‘zbek xalqining timsoli. Nomi uning tug‘ma pokligini ta’kidlaydi.

— U odamning nomi **Qori Ismat**. Ammo ba’zilar «**Qori Ismati Ishkam**», ba’zilar «**Qori Ismati Ishkamba**» va ba’zi birlar qisqartirib «**Qori-Ishkamba**» deydi. Buning sababini bilmayman. Lekin ajab emaski, u odamning qorni juda katta bo‘lganligidan shu laqabni uning nomiga qo‘shgan bo‘lsalar-u, bora-bora, laqab nom o‘rniga o‘tib qolgan bo‘lsa.

— Xalq «Ishkamba» laqabiga loyiq ko‘rgan odamdan biror yaxshilik umid qilib bo‘lmasa ham, — dedim do‘stimga, — siz meni u bilan tanishtiring, men undan «bo‘lsa bo‘lar, bo‘lmasa g‘ovlab ketar» qabilida bir hujra so‘rab ko‘raman. Bersa-ku, juda yaxshi, bermasa ham zarari yo‘q, ammo «Ishkamba-odam»ning qanday maxluq ekanini bir ko‘rib qolay. Bunday qiyofani ko‘rgan hamon meining ko‘nglimga, «Ajab emaski, xalq bu odamning qorni kattaligi uchun emas, balki gavdasining yum-yumaloqligi uchun unga «Ishkamba» laqabini munosib ko‘rgan bo‘lsa», degan fikr keldi [Ayniy,1982:2]



### Qori ot

1. Qur’onning barcha suralarini yod olgan va ularni qiroat bilan o‘quvchi shaxs. *Qur’onni boshdan-oyoq yod olgan qorilar ro‘za oyida pul ishlab qoladilar.* M.Muhammadjonov, Turmush urinishlari *Qozi yonidagi Asad qoriga yuzlandi: — Imom domla, o‘qing-chi, nima bitibdi buyonga.* M.Ismoiliiy, *Farg‘ona tong otguncha Fotiha tortilgandan so‘ng, qutidor va Oftob oyim qoriga pul berdilar.* A.Qodiriy, *O‘tgan kunlar*

2. *Ko‘zi ojiz, ko‘r kishi (hurmat yuzasidan ularni shunday ataydilar). Tayoq yo‘l ko‘rsatar a‘mo qoriga, Ul ham ko‘ngan qismatida boriga. Erali va Sherali* [Izoh.uz]

*Rahimi Qand, Amini Mush, Nasrulloji Deg, Mirzo Abdullo, Nazar, Rahim* va.b. ko‘plab antroponimlar qahramonning xarakter-xususiyatlarini ochib berishda o‘rinli foydalanilgan.

Asarda qo‘llangan antroponimlar adabiy jihatdan o‘ta muhim: ular personajlarni xarakterlash, satirik tanqid, madaniy-tarixiy kontekstni saqlash va metaforik ma‘nolar orqali o‘quvchining emotsional-idrok jarayonlarini faollashtirish vazifasini bajaradi. Ayniy ushbu nomlar orqali o‘zbek adabiyotidagi realizm va folklor an‘analarini uyg‘unlashtirib, Buxoro jamiyatining ijtimoiy illatlarini ochib beradi. Antroponimlar nafaqat hikoya syujetini boyitadi, balki o‘zbek xalqining milliy xotirasi va tanqidiy ruhini aks ettiruvchi muhim badiiy vositaga aylanadi. Qissadagi antroponimlar lingvokognitiv jihatdan o‘quvchining ongida personajlarni nafaqat individual, balki ijtimoiy-tarixiy tip sifatida shakllantiradi: ular etimologik ildizlari orqali madaniy qatlamlarni, semantik kontrastlari orqali satirani, kognitiv metaforalari orqali esa emotsional ta‘sirni ta‘minlaydi. Bu nomlar Ayniyning realistik uslubini boyitib, o‘zbek xalqining ruhiy dunyosini ochib beradi. Tahlil o‘zbek onomastikasining boy manbalarga ega ekanligini etirof etadi. Asarda o‘rganilgan antroponimlarimiz ushbu sohani yanada rivojlantirish uchun manba bo‘lib xizmat qiladi deb o‘ylaymiz. Ayniqsa, qissadagi nomlar xalqimiz tarixining ayrim jihatlarini ochib berishga xizmat qilish bilan birga bugun mavjud bo‘lgan nomlarning uzoq tarixga egaligidan ham dalolat beradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Айний С. Судхўрнинг ўлими. Қисса. –Тошкент: Ўқитувчи, 1982. –Б.72.
2. Бегматов Э. Ўзбек исмлари изоҳи. Ўзбекистон миллий энсклопедияси. – Тошкент, 2016 – 608 Б
3. Бегматов Э. Исmlарнинг сирли олами. – Тошкент: Ўзбекистон, 2014
4. A Theory of Cognitive Dissonance by Leon Festinger (30-Jun-1957. – 290B.
5. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Kognitiv\\_dissonans](https://uz.wikipedia.org/wiki/Kognitiv_dissonans)
6. Izoh.uz
7. <https://slib.uz/oz/article/view?id=2625>
8. [https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=en&user=oSSeGakAAAAJ&citation\\_for\\_view=oSSeGakAAAAJ:u5HHmVD\\_uO8C](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=en&user=oSSeGakAAAAJ&citation_for_view=oSSeGakAAAAJ:u5HHmVD_uO8C)
9. [https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=Iy7hDzQAAAAJ&citation\\_for\\_view=Iy7hDzQAAAAJ:bEWYMUwI8FkC](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Iy7hDzQAAAAJ&citation_for_view=Iy7hDzQAAAAJ:bEWYMUwI8FkC)